O‘QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANISHINI O‘RGANISHDA QISQA TANLOV TESTLARI HAMDA RAQAMLI TESTLARDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

O.M.Ibroximova
FarDU Sirtqi bo’lim Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini o‘rganish va to‘g‘ri baholay olishda qisqa tanlov testlari va raqamli testrlardan foydalanish xususiyatlari haqida yoritib berilgan.

qisqa tanlov testlari hamda raqamli testlardan foydalanish xususiyatlari

Bugungi kunda bilimlar tizimini mustaqil ravishda asosiy manbalardan va internet tarmog‘idan o‘rganish yuqori aqliy qobiliyat egasi bo‘lishni talab etadi. SHunday ekan ta’lim oluvchilar aqliy jihatdan etuk bo‘lishlari kerak, o‘shanda ular barcha fanlarning asoslarini, kasbiy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishda bir xilda harakatlanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Uzluksiz ta’limda ta’lim oluvchilarning aqliy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishning psixologik qonuniyatlarini aniqlash umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining mustaqil ta’lim olishi va aqliy qobiliyatlarini o‘stirishlariga imkon yaratadi. Bu esa aqliy qobiliyatni aniqlash va rivojlantirishning maxsus diagnostik vositalari va yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishni talab etadi.

Bilimlarni oson o‘zlashtirish, ta’lim samaradorligini ta’minlash va ijodiy izlanishga yo‘l ochish aynan aqliy qobiliyatlarning tub mohiyatini anglab etishni taqozo etadi. O‘quvchilarining ta’lim jarayonida aqliy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirish uchun o‘ziga xos ta’lim metodlarini joriy etish, oqilona yo‘llar orqali muammolarni yechishga o‘rgatish, mustaqil fikrlashga va ijodiy izlanishlar olib borishga tayyorlash lozim.

Aqliy qobiliyat tabiat in’omi bo‘lishi bilan bir qatorda ta’lim-tarbiyaga muxtoj bo‘lgan, uzluksiz rivojlanish xarakteriga ega bo‘lib, shaxsning umumiy rivojlanganlik darajasini hamda fikr yuritish uslubini belgilab beruvchi ko‘pqirrali individual psixologik xususiyat xisoblanadi.

Aqliy qobiliyat shaxsning integral xususiyati bo‘lib, uning tarkibiga barcha psixik protsesslar, individual psixologik xususiyatlar va xolatlar kiritiladi. Bir so‘z bilan aytganda aqliy qobiliyat murakkab tuzilishga ega. Shuning uchun aqliy qobiliyatni diagnostika qilish va ro‘yobga chiqarish uchun uning tarkibini o‘rganish hamda tuzatish muhim.

Aqliy qobilyatni tekshirish va o‘rganishda turli-xil usullar mavjud bo‘lib “Qisqa tanlov tesatlari” hamda “Raqamli testlar” dan foydalanish o‘quvchilarni intellektual rivojlanish darajasini to‘g‘ri baholashga yordam beradi.

QTT yordamida Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining mantiqiy tafakkur xususiyatlarini o‘rganish mumkin.

Qisqa tanlov testi umumiy aqliy qobiliyat testlari kategoriyasiga taalluqli bo‘lib, sinaluvchilarning aqliy taraqqiyot darajasini diagnostika qilishga mo‘ljallangan.

QTT turli murakkablikdagi 50 ta topshiriqni o‘z ichiga oladi. Bu topshiriqlarni bajarish jarayonida sinaluvchi o‘zidagi aqliy imkoniyatlarning integral ko‘rsatgichlarini namoyon qiladi. Chunki test topshiriqlari aqliy qobiliyatlarning barcha komponentlariga taalluqli bo‘lib, bu topshiriqlar aqliy faoliyatning bir qator xususiyatlarini aniqlab berish imkoniyatiga ega. Jumladan: materialni analiz qilish va umumlashtirish qobiliyati, tafakkurning originalligi, fikr yuritishning tezligi, emotsional jihatlari, tildan foydalanish, umumiy bilimdonlik va hokazolar.

«Qisqa tanlov testi» rossiyalik psixolog V.N.Buzin tomonidan ishlab chiqilgan va psixologiya fanlar nomzodi X.G‘.Sharafutdinova tomonidan o‘zbek milliy muhitiga moslashtirilgan.

Ushbu metodika (QTT) umumiy aqliy qobiliyat testlari qatoriga kiritilgan bo‘lib, «umumiy qobiliyat» larning quyidagi integral ko‘rsatkichlarini aniqlashga mo‘ljallangan;

- Materialni umumlashtirish va tahlil qilish;
- Tafakkurning egiluvchanligi;
- Tafakkurning ko‘chuvchanligi;
- Tafakkurning emotsional jihatlari: fikrning chalg‘ishi;
- Idrokning tezligi va aniqligi;
- Tildan foydalanish (savodxonlik);
- Mo‘ljal olish yoki qulay usulni tanlash;
- Tasavvur obrazi.

Ma’lumki umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida ta’limning uzluksizligini ta’minlash, kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish uchun muammo yoki topshiriqlarni hal etishda o‘quvchilarni doimiy ravishda yangicha, original, ijodiy yondoshishga o‘rgatish muhimdir.

Raqamli test raqamlar almashinuvi va sonlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarning yashirin jihatlarini axtarish va izlab topish kabi xususiyatlarni tarkib toptiradi.

Test topshiriqlari bir necha xil ko‘rinishlarga ega, ammo ularni bajarish sinaluvchidan bir-biriga yaqin aqliy harakatlarni talab etadi. Jumladan sonlar qatorini davom ettirish lozim bo‘lgan topshiriqlar turli ko‘rinishlarda berilgan, ularga 1, 3, 5, 8, 10, 12, 14, 17, 26, 29, 30, 33, 34, 37, 45, 48, 49 – topshiriqlar kiritilgan. Ularning ayrimlari aniq bir sonni qatordagi sonlarga qo‘shish, ayirish yoki ko‘paytirish orqali bajariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **G‘oziev E.G‘ va SH.Usmonov “Intellekt psixologiyasi” T: “Universitet” 1996**
2. G‘oziev E.G‘, R.Toshimov, I.Mamatov “Aqliy kamolotingizni bilasizmi” T: 1996
3. SHarafutdinova X.G‘. Aqliy qobiliyatning qisqa tanlov testi // Maktab va hayot. - Toshkent, 2006. - №8. - B. 26-28.
4. SHarafutdinova X.G‘. Ta’lim jarayonida aqliy qobiliyat psixokorreksiyasi // Maktab va hayot. - Toshkent, 2008. - № 2. - B. 18-20.
5. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, *3*(2), 1-3.
6. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O ‘RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(11), 176-182.
7. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILIY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, *1*(B8), 99-105.
8. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, *1*(8), 99-105.
9. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, *2*(2).
10. Buzrukova, D. M. (2023). “MUHABBAT” HISSIY KONSEPTINING TURLI LINGVOMADANIYAT VAKILLARI IDROKIDAGI TASVIRI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, *3*(1), 178-183.
11. Бузрукова, Д. (2022). ҲИС-ТУЙҒУЛАР УНИВЕРСАЛЛИГИ ВА ҲИССИЙ-ЛИСОНИЙ ОЛАМ МАНЗАРАСИГА ПСИХОЛИНГВИСТИК ЁНДАШУВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(11), 239-242.

12. Mamurkhanovna, D. B. (2022). The Concept Of “Love” As An Important Element Of The Emotional World Landscape. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, *7*(5), 95-98.

13. Tursunova, D. T., Abobakirova, O. N., Buzrukova, D. M., Mahmudova, O. T., Ubaydullayeva, Z. H., & Kholmatova, N. N. (2022). Principal Principles And Important Factors Of Student Women's Social Activity. *Journal of Positive School Psychology*, 6262-6269.

14. Buzrukova, D. M. M. (2023). TARBIYACHI VA OTA-ONALARNING O ‘ZARO HURMATGA ASOSLANGAN MULOQOTINING KALIT FAKTORLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(4), 793-797.

15. Buzrukova, D. M. (2023). Muhabbat" konseptining lingvomadaniy o'ziga xosligi. *FarDU. ILMIY XABARLAR*, *1*, 318-321.

WORDLY
KNOWLEDGE